

Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Pedagogika
va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR (ILMIY ADABIYOTLAR SHARHI)

UO'K: 159.9

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_4_2](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_4_2)

QAHHAROV N.SH.-O'. TALABALARDA KASBIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR (ILMIY ADABIYOTLAR SHARHI)

Tadqiqotda talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Kasbiy identifikatsiyaning shakllanishida individual-psixologik xususiyatlar, motivatsiya, temperament, xarakter, hissiy-irodaviy sifatlar hamda ijtimoiy muhitning o'rni ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvi va professional o'zligini anglash jarayonlari tadqiq etilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: kasbiy identifikatsiya, motivatsiya, temperament, xarakter, individual-psixologik xususiyatlar, hissiy-irodaviy sifatlar, ijtimoiy muhit, professional o'zlik, kasbiy faoliyat, talaba shaxsi, kasbiy moslashuv, psixologik omillar.

КАХХАРОВ Н.Ш.-У. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ У СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ (ОБЗОР НАУЧНЫХ ИСТОЧНИКОВ)

В исследовании проанализированы психологические факторы, влияющие на формирование профессиональной идентичности студентов. Освещена роль индивидуально-психологических особенностей, мотивации, темперамента, характера, эмоционально-волевых качеств и социальной среды в процессе формирования профессиональной идентичности на основе научных подходов. Также исследованы процессы профессиональной адаптации и профессионального самосознания студентов.

Ключевые слова и понятия: профессиональная идентичность, мотивация, темперамент, характер, индивидуально-психологические особенности, эмоционально-волевые качества, социальная среда, профессиональное самосознание, профессиональная деятельность, личность студента, профессиональная адаптация, психологические факторы.

КАХХАРОВ N.SH.-U. PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTIFICATION IN STUDENTS (REVIEW OF SCIENTIFIC SOURCES)

The study analyzes the psychological factors influencing the formation of professional identity in students. The role of individual psychological characteristics, motivation, temperament, character, emotional-volitional qualities, and social environment in the development of professional identity is highlighted based on scientific approaches. In addition, the processes of professional adaptation and professional self-awareness of students are examined.

Keywords and concepts: professional identity, motivation, temperament, character, individual psychological characteristics, emotional-volitional qualities, social environment, professional self-awareness, professional activity, student personality, professional adaptation, psychological factors.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan jamiyatda yoshlarning kasbiy o'zligini anglashi, o'z kasbiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi hamda professional faoliyatga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning kasbiy yo'nalishi, qadriyatlar va professional identifikatsiyasi shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Shu bois talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy identifikatsiya — bu shaxsning o'zini muayyan kasb egasi sifatida anglashi, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi va kasbiy faoliyatga ichki tayyorgarligining shakllanish jarayonidir. Mazkur jarayon talabaning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, temperament tipi, xarakteri, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi.

Psixolog olimlar E.Erikson, G.Adams, A.N.Sharonov, A.A.Jilyayev va boshqa tadqiqotchilar kasbiy identifikatsiyaning shakllanishida ijtimoiylashuv, muloqot, motivatsiya, hissiy-irodaviy sifatlari hamda asab tizimi xususiyatlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Ayniqsa, talabalar faoliyatida kasbiy yo'nalganlik, tashabbuskorlik, kreativlik va stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati kasbiy identifikatsiyaning shakllanganlik darajasini belgilaydi.

Mavzuning dolzarbligi.

Bugungi globallashuv va kasbiy raqobat kuchayib borayotgan davrda talabalarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi muhim psixologik-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Talabaning o'z kasbiga bo'lgan munosabati, kasbiy qadriyatlarni anglash darajasi hamda kelajak faoliyatiga tayyorligi uning individual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Kasbiy identifikatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi talabalarda kasbiy noaniqlik, motivatsiyaning pasayishi, moslashuv muammolari va kasbiy faoliyat samaradorligining susayishiga olib keladi. Shu bois talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni ilmiy jihatdan o'rganish, ularning mazmuni va ta'sir mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda ularning kasbiy shakllanish jarayonidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyektini oliy ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy identifikatsiya shakllanish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti sifatida talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi individual-psixologik xususiyatlar, motivatsiya, temperament, xarakter, hissiy-irodaviy sifatlari va ijtimoiy-psixologik omillarning mazmuni hamda o'zaro bog'liqligi belgilangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Kasbiy identifikatsiya imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ushbu psixologik hodisaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillar turli nazariy yondashuvlarda tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Ushbu sohada tadqiqot olib boradigan barcha tadqiqotchilar identifikatsiya jarayonini dinamik tuzilma sifatida ta'riflab, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham dinamik harakterga egaligini ta'kidlashadi.

E.Erikson o'zining "Insonning hayot yo'lining epigenetik konsepsiyasi" da keltirishicha, ijtimoiy identifikatsiya, xususan kasbiy identifikatsiyani shakllanishiga birinchi navbatda shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy normalarni qabul qilish darajalari ta'sir ko'rsatadi¹. Talabada kasbiy identifikatsiyani shakllanishi ushbu nazariy yondashuvga ko'ra, birinchi navbatda ijtimoiy xususiyatlar: ijtimoiy normalarga rioya qilish darajalari, ijtimoiy munosabatlar, muloqot, tarbiya, ta'lim bilan belgilanadi.

Simvolik interaksionizm vakillarining fikricha, kasbiy identifikatsiyaning shakllanishiga insonning hayotiy tajribasi natijasida vujudga keladigan psixologik xususiyatlar: intellekt, munosabat, emotsiya, farqlay olish, ijtimoiy idrok ta'sir ko'rsatadi². Darhaqiqat talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishi shunchaki paydo bo'lib qoluvchi jarayon emas balki ma'lum bir vaqt, turli shartsharoitlar ta'siri natijasida tajribaning ortib borishi va aynan ana shu tajriba asosida

¹ Erikson E. H. Identity and the life cycle. – WW Norton & company, 1994. – P. 59-86.

² Kenny D. A. The design and analysis of social-interaction research //Annual Review of Psychology. – 1996. – T. 47. – №. 1. – P. 59-86.

paydo bo'lgan psixologik o'ziga xosliklar maxsuli sanaladi.

Talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar biogen, sotsiogen va psixogen elementlarning o'zaro bog'liqligi bilan harakterlanadi. Amerikalik olim R.Freydjerning ta'kidlashicha, har bir inson o'z jinsining biologik va genetik xususiyatlari hamda o'ziga xos fazilatlar majmui bilan tug'iladi. Bu xususiyatlar kelajakda uning xatti-harakati va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi¹. Demak, talabalarining kasbiy identifikatsiyasi uning ijtimoiylashuvi, oilada tarbiyalanishi, ta'lim muassasalarida ta'lim olishining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Bular esa uning individual-psixologik xususiyatlarida aks etadi. Tadqiqotchi G.R.Adamsning ta'kidlashicha, talabalar ijtimoiy munosabatlarni amalga oshiruvchisi sifatida turli kasbiy faoliyat bilan bog'liq jarayonlarda faol ishtirok etadi, bu esa ularga boshqa talabalar bilan professional aloqa o'rnatishga tashabbuskor bo'lishga imkon beradi². Shu boisdan talabaning tashabbuskorligi, intiluvchanligi uning kasbiy identifikatsiya salohiyati bilan belgilanadi.

Aytish mumkinki, talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi individual-psixologik xususiyatlari umumiy ahamiyatga ega bo'lib, A.M.Bermanning fikricha, u quyidagi jabhalarda namoyon bo'ladi:

- shaxs yo'nalganligi;
- motivatsiya;
- hissiyirodaviy soha;
- temperament;
- xarakter;
- kognitiv jarayonlar;
- qadriyatlar tizimi;
- muammolarni bartaraf etishdagi faollik;
- kreativlik;
- kasbiy layoqat;
- turli hodisalar va vaziyatlarga hissiy munosabat va boshqalar³.

¹ Фрейджер Р. Фейдимен Д. Теории личности и личностный рост. М., 2001. – С. 76.

² Adams G.R., Marshall S.K. A developmental social psychology of identity: Understanding the person-in-context // Journal of adolescence. – 1996. – Т. 19. – №. 5. – P. 429-442.

³ Berman A.M. et al. The process of exploration in identity formation: The role of style and competence // Journal of adolescence. – 2001. – Т. 24. – №. 4. – С. 513-528.

Tadqiqotchi A.N.Sharonov talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni:

- qiziqishlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- g'oyalar va ideallarning o'ziga xosligi;
- tayanch e'tiqodlari;
- ehtiyojlari (biologik, sotsiologik, psixologik);
- dunyoqarashning kengligi va rang-barangligi bilan ifodalaydi⁴.

Bu kabi yondashuvni A.A.Jilyayevning ilmiy izlanishlarida ham uchratish mumkin. Muallifning fikricha, talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishi birinchi navbatda psixologik holatlarga, emotsional ta'sirlarga, kognitiv jarayonlar va irodaviy sifatlar bilan kechadi⁵. Bizningcha, ushbu psixologik omillar talabaning turli murakkab shartsharoitlar, murakkab vaziyatlarda ham adekvat kasbiy identifikatsiyasini shakllanishiga yordam beradi va har qanday turdagi moslashish jarayonlarini osonlashtiradi.

Tadqiqotchi G.Kummelning yozishicha, talabalarda identifikatsiya shakllanishida individual-psixologik xususiyatlarning o'rnini baholashda quyidagi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratiladi⁶:

- kasbiy yo'nalganlik va kasb bilan bog'liq ehtiyojlarni, qiziqishlarni manfaatlarni anglash;
- o'zaro munosabatlarda barqarorlik⁷.

E.Grassianining qarashlariga ko'ra, talabalarda kasbiy identifikatsiya shakllanishi kasbiy yo'nalganlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, u tufayli talaba oldidagi to'siqlarni yengib o'ta oladi, ijobiy harakatlarni amalga oshiradi, faoliyatiga doir strategik maqsadlarni belgilaydi⁸.

⁴ Шаронов А.Н. Идентификация предметов и процессов вещевого обеспечения военнослужащих // Научный вестник Вольского военного института материального обеспечения: военно-научный журнал. – 2019. – №. 1. – С. 118-121.

⁵ Жильев А.А. Проблема идентификации военнослужащих, принадлежавших к неформальным молодёжным объединениям // Военно-профессиональная идентичность: актуальные направления исследования. – 2018. – С. 208-219.

⁶ Антипов В.В. Психологическая адаптация к экстремальным ситуациям / В.В.Антипов. – М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004. – С. 103.

⁷ Kümmel G. Military identity and identity within the military // Handbook of the sociology of the military. – Springer, Cham, 2018. – P. 477-493.

⁸ Grassiani E. Between security and military identities: The case of Israeli security experts // Security dialogue. – 2018. – Т. 49. – №. 1-2. – P. 83-95.

Ta'kidlash joizki, talabanning kasbiy identifikatsiyasi uning individual, maqsadli va manfaatli yo'nalganligi bilan karakterlanadi.

Tadqiqotchi J.Burkning yozishicha, talabalarning barqaror individual xususiyatlari kasbiy faoliyatga nisbatan motivatsiyaning oshishiga, samarali munosabatlarni o'rnatish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, ijobiy kasbiy identifikatsiyani shakllantirishga imkon beradi¹.

Tadqiqotchi V.Bashamning yozishicha, talabalarning kasbiy identifikatsiyasi shakllanishida shaxs individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishda asab xususiyatlari, temperament, xarakter, qobiliyatlarning o'rnini alohida ta'kidlab o'tadi². Bularning barchasi talabalarning samarali kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyatlari va fazilatlarini rivojlantirish va kasbiy identifikatsiyani shakllantirishning zaruriy sharti sifatida asab xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati katta.

Tadqiqotchi V.K.Brusning ta'kidlashicha, talabalarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishning muvaffaqiyati bir qator omillarning inson tanasi va psixikasiga tartibga soluvchi ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, bu esa talab qilinadigan muvofiqlik darajasiga erishish uchun moyillikning namoyon bo'lishini belgilaydi³. Demak, ushbu tartibga soluvchi omillar, bir tomondan, talabning kasbiy, psixologik va fiziologik fazilatlarining individual xususiyatlarini, ikkinchi tomondan, faoliyatni amalga oshiradigan muayyan faoliyatning mazmuni, vositalari, shartlari va tashkil etilishining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

D.S.Hargrov shaxsning kasbiy faoliyati samaradorligi va ishonchliligi muammosini oliy nerv faoliyati turlari haqidagi ta'limot nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi⁴. Muallifning fikricha, shaxsning kasb bilan bog'liq ayrim xususiyatlari hamda uning asab tizimining asosiy xususiyat-

lari o'rtasidagi bog'liqlik mavjud. Bu xususiyatlar tug'ma, o'zgarasdir va shuning uchun ular ishlash va ishonchlilikning doimiy parametrlari sifatida ishlaydi. Ushbu bog'liqliklar quyidagilar bilan belgilanadi:

- asab tizimining kuchiga asoslangan uzoq muddatli chidamlilik;
- asab tizimining qo'zg'alish bilan bog'liqligi yoki asabiy jarayonlarning muvozanati bilan bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan favqulodda stress va haddan tashqari kuchlanishga chidamlilik;
- asosiy asab jarayonlarining kuchi bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak bo'lgan atrof-muhit omillarining ta'siriga immuniteti;
- kutilmagan ogohlantirishlarga reaksiya - qo'zg'alish jarayonlari muvozanatining funksiyasi.

O'zgaruvchanlik, bu asab faoliyatining harakatchanligi bilan bog'liq. Tadqiqotchilar Gurevich va V.F.Matveyev favqulodda mashqlar paytida muvaffaqiyatli va ishonchli harakatlari, o'z-o'zini nazorat qilishning saqlanishini asab tizimining asosiy xususiyatlari bilan bog'liqligi aniqlashadi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, qo'zg'alish jarayonining kuchini tashxis qiluvchi tadqiqot namunasi ko'rsatkichlarining ma'lum miqdoriy chegarasida, yuqori ehtimollik bilan, kerakli kasbiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar ularga ega bo'lmagan shaxslardan ajratiladi. Aytish joizki, nomutanosibliklar qo'zg'alish jarayonining individual zaifligi fonida kasbiy ahamiyatga ega. Darhaqiqat, shaxsning kasbiy identifikatsiyasi shakllanganlik darajasiga qarab aniq farqlash uchun, ba'zi kombinatsiyalarda asab tizimining xususiyatlarining bir xil ko'rsatkichlari uchun mantiqiy asoslar talab qilinadi. M.D.Jonsonning yozishicha, shaxsning munosabatlar tizimida, qabul qilish darajasida va faoliyat jarayonida sezilarli individual farqlar mavjud. Jumladan axborotni qabul qilish faoliyati davomida o'tkazuvchanlik darajasining pasayishi qo'zg'alish jarayoni nisbatan zaif bo'lgan odamlarga xosdir⁵. Vizual muqobil signallar bilan ishlaganda, faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan zaif eshitish stimullari asosiy faoliyat-

¹ Burk J. Military culture // Encyclopedia of violence, peace and conflict. – 1999. – T. 2. – P. 447-461.

² Basham V. Everyday gendered experiences and the discursive construction of civilian and military identities in Britain // norma. – 2008. – T. 3. – №. 2. – P. 151-166..

³ Bruss K.V., Kopala M. Graduate school training in psychology: Its impact upon the development of professional identity // Psychotherapy: Theory, Research, Practice, Training. – 1993. – T. 30. – №. 4. – P. 685.

⁴ Hargrove D.S. The rural psychologist as generalist: A challenge for professional identity // Professional Psychology. – 1982. – T. 13. – №. 2. – P. 302.

⁵ Johnson M.D. et al. Multiple professional identities: examining differences in identification across work-related targets // Journal of Applied Psychology. – 2006. – T. 91. – №. 2. – C. 498.

tning oshishiga olib kelishi mumkin - bunday o'sish darajasi qo'zg'alish jarayonining kuchi bilan ijobiy bog'liqlikka egadir. Demak, talabalarda kasbiy identifikatsiyaning ijobiy shakllanishi nafaqat ularning ijtimoiy xususiyatlari, shuningdek, individualasab xususiyatlari bilan ham tafovvt qiladi.

Y.Y.Strelnikova insonning tipologik xususiyatlarining uning faoliyati samaradorligi va ishonchliligiga, ayniqsa ekstremal sharoitlarda ta'siri haqidagi nuqtai nazarni keltiradi¹. U eksperimental ravishda asab tizimining xususiyatlarining tipologik xususiyatlarining ma'lum bir kombinatsiyasi inson faoliyatining ishonchliligi bilan bog'liq bir qator fikrlarni keltirib chiqarishini ko'rsatdi: noqulay hissiy holatlarning paydo bo'lishi, ixtiyoriy fazilatlar va psixomotor qobiliyatlarning namoyon bo'lishi bilan harakterlanadi.

H.S.Sleyning ta'kidlashicha, shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi, shaxsiy sifatleri, fazilatleri, maqsadistakleri, faoliyat motivlari shakllanishi uning biologik shart-sharoitlari bilan harakterlanib, ular orasida temperament alohida o'ringa ega. Umuman jamiyatda odamlar teng xulq-atvor va faoliyat motivlariga ega bo'lishi yoki bir xil tashqi ta'sirlarga nisbatan ta'sirchanligiga va ko'rsatayotgan reaksiyasiga ko'ra, sezilarli darajada bir-biridan farq qiladilar². Ayrim insonlar osudalikni, boshqasi tezkorlikni yoktiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez o'yg'onishi xos bo'lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imoishoralar, ma'noli mimika, boshqasining harakatlari vazminlik, yuzining juda ham kam harakat qilishi bilan ajratib turadi. Demak, kasbiy identifikatsiya shakllanishida ham temeperament xususiyatlarining o'rni juda katta.

T.V.Malyutinaning fikricha, talaba shaxsining shakllanishida temperamentning o'rni nechog'lik ahamiyat kasb etsa, kasbiy identifikatsiya shakllanishida ham shunchalik ahamiyatga ega

hisoblanadi³. Bundan ko'rinadiki, talabalarda kasbiy identifikatsiya shaxsiga xos dinamik fazilatlar bilan o'zaro ichki bog'lanishga ega bo'lib, o'ziga xos tuzilishni tashkil etadi.

Temperament psixikaning individual xususiyatlaridan bo'lib, inson psixik faoliyatining rivojlanishini va dinamikasini belgilab beradi. V.A.Pranovning qarashlariga ko'ra, kasbiy faoliyat dinamikasi kishining individual xususiyatlariga, motivlariga, psixik holatlariga bog'liq bo'lib, ular quyidagi ko'rinishda aks etadi⁴:

1. Individual xususiyatlar faqat bir turdagi emas, balki turli xil maqsadlardagi faoliyat tur-larida: o'yin, o'quv, mehnatda, sportda, muloqot jarayonida nomoyon bo'ladi.

2. Individual xususiyatlar odamning butun umri davomida yoki ma'lum bir qismida barqaror va o'zgarmasdir.

3. Individual xususiyatlar bir-biri bilan tasodifiy emas, balki ma'lum bir qonuniyatlar asosida bog'langan bo'lib ma'lum tuzilishni tashkil qiladi.

Demak, individual xususiyatlar, xususan, temperament deganda, bir inson psixik faoliyati dinamikasini belgilovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli ko'rinishdagi faoliyatlarda, motivlarda, maqsadlarda nisbatan barqaror va temperament tiplarini xarakterlovchi tuzilishni hosil qiladi. Temperament borasida juda ko'p ta'riflar, yondashuvlar mavjud. Aynan talabalar kasbiy identifikatsiyasini temperament bilan o'zaro aloqasini tahlil qilishda quyidagi qarashlarga e'tibor qaratish lozim. I.Pavlov ta'limotiga muvofiq, oliy nerv faoliyat tiplarining kishi xulqida nomoyon bo'lishi – temperament hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra:

1) Sensitivlik. Bu tashqi qo'zg'atuvchining ta'siriga nisbatan sezgirlik. Kasbiy identifikatsiya jarayonida kuchli sezgirlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarining murakkab kasbiy faoliyatida tezkor qaror qabul qilish, voqeahodisalarni tezkor baholash va topshirilgan vazifalarni aniq va samarali bajarishni ta'minlaydi. Sensitivlik kuchli bo'lsa kishiga ozgina kuchga ega bo'lgan

¹ Стрельникова Ю.Ю., Емельянова С.В. Исследование феномена профессиональной идентичности в различных направлениях психологической науки // Пенитенциарная наука. – 2019. – Т. 13. – №. 2. – С. 257-265.

² Slay H. S., Smith D. A. Professional identity construction: Using narrative to understand the negotiation of professional and stigmatized cultural identities // Human relations. – 2011. – Т. 64. – №. 1. – С. 85-107.

³ Малутина Т. В. Профессиональная идентичность, ее структура и компоненты // Омский научный вестник. – 2014. – №. 5 (132). – С. 149-152.

⁴ Пранов В.А. Социально-психологические характеристики профессиональной идентичности // Мир науки. Педагогика и психология. – 2017. – Т. 5. – №. 5. – С. 57.

qo'zg'atuvchi ham ta'sir qiladi, psixik reaksiyani yuzaga keltiradi.

2) Reaktivlik. Shaxsga turli hil qo'zg'atuvchilar muntazam ta'sir ko'rsatib turadi. Talabalarda, xususan rahbar kadrlarda ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sir kuchiga nisbatan javob reaksiyasining paydo bo'lishi kasbiy identifikatsiya shakllanishining muhim belgisi hisoblanadi.

3) Faollik. Ushbu xususiyat turli ko'rinishdagi faoliyatni bajarishda vujudga keladigan to'siqlarni yengib o'tishni anglatadi. Talaba shaxsiga qo'yilgan eng asosiy talablardan biri aynan faollikdir. Demak, faollik kasbiy identifikatsiya shakllanishida individual xususiyat sifatida alohida o'ringa ega.

4) Reaksiya darajasi. Turli psixik reaksiyalar, jarayonlarning o'tish tezligi (nutq, fikr yuritish, harakatlar tezligi va h.k.). Talabalar har doim aniq va tezkor fikr yuritishi, vaziyatni tezda nazorat qila olishi talab etiladi. Shu boisdan ham ushbu xususiyat faoliyatni samarali tashkil etishda asosiy vazifani bajaradi.

5) Ekstrovertlik va introvertlik. Ekstrovertlik kishining psixikasining tashqariga yo'nalganligi, tashqi olam bilan faol munosabatda bo'lishi, faoliyatining ayni vaqtdagi taassurotlarga bog'liqligi. Introvertlik - faoliyatning ichki obrazlarga, o'tmish va kelajak bilan bog'liq fikrlarga bog'liqligi. Ushbu xususiyatning ta'rifidan kelib chiqib aytish mumkinki, talaba shaxsi uchun har ikki toifa ham xos bo'lishi mumkin. Eng muhimi faoliyatga qaysi biri samarali moslashishga yordam bersa o'sha xususiyatni rivojlantirish talab etiladi. Ta'kidlash joizki, kasbiy identifikatsiya shakllanishida rahbar kadrlarda ekstovertsiya xususiyati talab etiladi¹.

Talaba shaxsiing kasbiy identifikatsiya shakllanishida xarakter xususiyatlarining o'rni katta. T.Likonaning ta'rificha, xarakter o'ziga xos individual xususiyat sifatida shaxsning munosabatlari va xatti-harakatlarini belgilaydigan nisbatan doimiy psixologik tuzilishi hisoblanadi².

Norvegiya professori O.Boyening yozishicha, talabalarning xarakter xususiyatlari odatda ularning barcha namoyon bo'ladigan va harakat-

lariga ma'lum bir "muhr" qo'yadigan xususiyatlar va fazilatlar to'plami tushuniladi³. Talabalarga xos xarakter xususiyatlari uning u yoki bu xatti-harakatini, turmush tarzini, maqsadlarini belgilaydigan muhim xususiyatlarini tashkil qiladi. K.E.Trenberzning yozishicha, xarakter inson asab faoliyat turi bilan belgilanadi va uning dinamikasi atrof — muhit bilan bevosita bog'liq bo'lib, quyidagilarda namoyon bo'ladi⁴.

– shaxsning xulq-atvor turini tashkil etuvchi barqaror motivlar va xatti-harakatlar tizimi;

– ichki va tashqi olamlarning muvozanat o'lchovi, shaxsni uning atrofidagi voqelikka moslashtirish xususiyatlari;

– har bir insonning odatiy xatti-harakatlarining aniqligi. Aytish joizki, xarakter xususiyatlari turli ko'rinishga ega bo'lganligi bois kasbiy faoliyat uning dinamikasiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni talabaning kasbiy faoliyati, uning qadriyatlari uning xarakter xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Kasbiy identifikatsiya shakllanishida J.E.Olsenning qarashlariga ko'ra, shaxsiy munosabatlar tizimida simptom komplekslarini tashkil etuvchi xarakter xususiyatlarining to'rt guruhi mavjud⁵:

– insonning boshqa odamlarga, jamoaga, jamiyatga munosabati (xushmuomalalik, sezgirlik va sezgirlik, boshqalarga — odamlarga hurmat, kollektivizm va qarama — qarshi xususiyatlar-izolyatsiya, qo'pollik, ruhsizlik, qo'pollik, odamlarga nisbatan nafrat, individualizm);

• insonning mehnatga, o'z ishiga munosabatini ko'rsatadigan xususiyatlar (mehnat-sevarlik, ijodga moyillik, ishdagi vijdonlilik, mas'uliyatli munosabat, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik va ularga qarama — qarshi xususiyatlar-dangasalik, odatiy ishlarga moyillik, vijdon-sizlik, mas'uliyatsiz munosabat, passivlik);

• shaxsning o'ziga qanday munosabatda bo'lishini ko'rsatadigan xususiyatlar — o'z-o'zini

³ Boe O. Character in military leaders, officer competency and meeting the unforeseen // *Procedia-Social and Behavioral Sciences*. – 2015. – T. 190. – C. 497-501.

⁴ Trenberth K.E. et al. The changing character of precipitation // *Bulletin of the American Meteorological Society*. – 2003. – T. 84. – №. 9. – C. 1205-1218.

⁵ Olsen J.E., Martins L.L. The effects of expatriate demographic characteristics on adjustment // *Published in Cooperation with the School of Business Administration, The University of Michigan and in alliance with the Society of Human Resources Management*. – 2009. – T. 48. – №. 2. – C. 311-328.

¹ Ғозиев Э. Умумий психология // "Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти" Т.: – 2010. – Б. 287-298.

² Lickona T. What is good character? // *Reclaiming children and youth*. – 2001. – T. 9. – №. 4. – C. 239.

hurmat qilish, mag'rurlik va u bilan bog'liq o'z-o'zini tanqid qilish, kamtarlik va unga qarama-qarshi xususiyatlar-takabburlik, xudbinlik;

- insonning narsalarga bo'lgan munosabatini tavsiflovchi xususiyatlar (narsalarga ehti-yotkorlik yoki beparvolik).

Xulosalar:

1. Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkin, talaba rahbar kadrlar kasbiy identifikatsiya shakllanishida psixologik omillarning o'rnini aniqlash va baholash muammosi turli nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar asosida ko'rib chiqiladi.

2. Tadqiqotchilarga ko'ra, talabalarning kasbiy identifikatsiyasi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari biogen, sotsiogen va psixogen elementlarning o'zaro yaxlitligi bilan belgilanadi.

3. Shuningdek, kasbiy identifikatsiya shakllanishiga talabaning temperament va xarakter xususiyatlarining ta'siri juda katta bo'lib, uning oliy nerv faoliyati bilan bog'liq xususiyatlari xizmat faoliyatiga, kasbiy normalarni qabul qilish va amalga oshirishiga, jamoada o'z o'rnini topa olishiga, murakkab sharoitlarda qaror qabul qila olishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Erikson E.H. Identity and the life cycle. – WW Norton & company, 1994. – P. 59-86.
2. Kenny D.A. The design and analysis of social-interaction research // Annual Review of Psychology. – 1996. – T. 47. – №. 1. – P. 59-86.
3. Фрейджер Р. Фейдимен Д. Теории личности и личностный рост. М., 2001. – С. 76.
4. Adams G.R., Marshall S.K. A developmental social psychology of identity: Understanding the person-in-context // Journal of adolescence. – 1996. – T. 19. – №. 5. – P. 429-442.
5. Berman A.M. et al. The process of exploration in identity formation: The role of style and competence // Journal of adolescence. – 2001. – T. 24. – №. 4. – С. 513-528.
6. Шаронов А.Н. Идентификация предметов и процессов вещевого обеспечения военнослужащих // Научный вестник Вольского военного института материального обеспечения: военно-научный журнал. – 2019. – №. 1. – С. 118-121.
7. Жиляев А.А. Проблема идентификации военнослужащих, принадлежавших к неформальным молодёжным объединениям // Военно-профессиональная идентичность: актуальные направления исследования. – 2018. – С. 208-219.
8. Антипов В.В. Психологическая адаптация к экстремальным ситуациям / В.В. Антипов. – М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2004. – С. 103.
9. Kümmel G. Military identity and identity within the military // Handbook of the sociology of the military. – Springer, Cham, 2018. – P. 477-493.
10. Grassiani E. Between security and military identities: The case of Israeli security experts // Security dialogue. – 2018. – T. 49. – №. 1-2. – P. 83-95.
11. Burk J. Military culture // Encyclopedia of violence, peace and conflict. – 1999. – T. 2. – P. 447-461.
12. Basham V. Everyday gendered experiences and the discursive construction of civilian and military identities in Britain // norma. – 2008. – T. 3. – №. 2. – P. 151-166..
13. Bruss K.V., Kopala M. Graduate school training in psychology: Its impact upon the development of professional identity // Psychotherapy: Theory, Research, Practice, Training. – 1993. – T. 30. – №. 4. – P. 685.
14. Hargrove D.S. The rural psychologist as generalist: A challenge for professional identity // Professional Psychology. – 1982. – T. 13. – №. 2. – P. 302.

15. Johnson M.D. et al. Multiple professional identities: examining differences in identification across work-related targets // *Journal of Applied Psychology*. – 2006. – Т. 91. – №. 2. – С. 498.
16. Стрельникова Ю.Ю., Емельянова С.В. Исследование феномена профессиональной идентичности в различных направлениях психологической науки // *Пенитенциарная наука*. – 2019. – Т. 13. – №. 2. – С. 257-265.
17. Slay H.S., Smith D.A. Professional identity construction: Using narrative to understand the negotiation of professional and stigmatized cultural identities // *Human relations*. – 2011. – Т. 64. – №. 1. – С. 85-107.
18. Малютина Т.В. Профессиональная идентичность, ее структура и компоненты // *Омский научный вестник*. – 2014. – №. 5 (132). – С. 149-152.
19. Пранов В.А. Социально-психологические характеристики профессиональной идентичности // *Мир науки. Педагогика и психология*. – 2017. – Т. 5. – №. 5. – С. 57.
20. Ғозиев Э. Умумий психология. - Т.: "Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти". – 2010. – Б. 287-298.
21. Lickona T. What is good character? // *Reclaiming children and youth*. – 2001. – Т. 9. – №. 4. – С. 239.
22. Boe O. Character in military leaders, officer competency and meeting the unforeseen // *Procedia-Social and Behavioral Sciences*. – 2015. – Т. 190. – С. 497-501.
23. Trenberth K.E. et al. The changing character of precipitation // *Bulletin of the American Meteorological Society*. – 2003. – Т. 84. – №. 9. – С. 1205-1218.
24. Olsen J.E., Martins L.L. The effects of expatriate demographic characteristics on adjustment // *Published in Cooperation with the School of Business Administration, The University of Michigan and in alliance with the Society of Human Resources Management*. – 2009. – Т. 48. – №. 2. – С. 311-328.